



HARBIY TA'LIM JARAYONIDA TA'LIM METODLARI VA VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Yuldashev Furqat Bekturdiyevich

*O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi
kafedra boshlig'i o'rinbosari*

Annotatsiya: *Maqolada O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini rivojlantirishda yangi va ilg'or innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etilishi va ushbu jarayonning samarali tashkil etilishida bir nechta muhim omillar qay darajada ahamiyat kasb etishi va istiqboldagi samarali jihatlar haqida ilmiy fikr va mulohazalar yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *zamonaviy texnologiya, ilg'or pedagogik texnologiya, axborot texnologiya, metod.*

Аннотация: *В статье рассматриваются вопросы внедрения новых и передовых педагогических технологий в развитие системы образования Республики Узбекистан, а также значимость ряда важных факторов в эффективной организации этого процесса и перспективы на будущее.*

Ключевые слова: *современные технологии, передовые педагогические технологии, информационные технологии.*

Abstract: *The article of the education system and the introduction of new and advanced technologies in the development of this process is effective in the creation of a number of important factors, and how important and effective approach for the future of scientific opinions and comments about the coverage*

Keywords: *modern technologies, advanced pedagogical technologies, information technologies.*

KIRISH

Harbiy ta'lim jarayonini tashkil etish, samarali natijalarga erishish sohadagi bugungi dolzarb masalalardan hisoblanadi. Prezidentiimiz Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Sh.M.Mirziyoyev 2018 yil 13 yanvar kuni Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisidagi nutqida: "...Qo'shinlar istalgan daqiqada o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi kerak. Ular jangovar tayyorgarlikning yangi tizimi bo'yicha muntazam shug'ullanib borishi, barcha harbiy xizmatchilar haqiqiy professional kadr bo'lishi uchun o'z sohasini puxta egallashi shart ...", - deb ta'kidladi. Buning uchun esa harbiy ta'lim jarayonini zamonaviy talablardan kelib chiqib tashkillashtirish lozim. Darhaqiqat, ta'lim jarayonini tashkil etishda pedagog salohiyati bilan bir qatorda mashg'ulot moddiy ta'minotini sifati ham muhim.

Pedagoglar va harbiy xizmatchilar mashg'ulotga tayyorgarligi, o'zlashtirishi, bilim, ko'nikmalar bilan qurollantirilishida zamon talabidan kelib chiqib tayyorlanishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.



Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek "Innovatsiya bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak" deb aytib o'tganlar.

ASOSIY QISM

T.G. Kirilanovning fikricha, didaktikada ta'lim metodlari tinglovchilarni faollashtirish darajasi yoki o'quv-bilish faoliyati xarakteriga qarab quyidagicha tasniflanadi:

- ma'lumot manbalari bo'yicha (verbal, ko'rgazmali, amaliy metodlar);
- mantiq usullari bo'yicha (tahliliy-sintetik, induktiv, deduktiv metodlar);
- o'qitish shakli bo'yicha (ko'rgazmali tushuntirish, muammoli- rivojlantiruvchi metodlar);
- ta'lim oluvchilarning bilish mustaqilligi bo'yicha (reproduktiv, produktiv, evristik metodlar);
- muammolilik darajasi bo'yicha (ko'rgazmali, monologik, dialogik, evristik, tadqiqiy, algoritmik, dasturlashtirilgan metodlar);
- didaktik maqsadi va funksiyalari bo'yicha (rag'batlantirish, tashkiliy va nazorat metodlari);
- faoliyat bo'yicha (bayon qilish, mustaqil o'quv faoliyatinitashkil qilish metodlari) va hokazo.

Ta'lim jarayonining muvaffaqiyati uning shakligagina emas, balki qo'llanilayotgan metodlar va vositalar samaradorligiga bog'liq bo'lib, u ta'lim nazariyasida asosiy o'rinlardan birini egallaydi. "Metod" - yunoncha "metodos" - "yo'l" degan so'zdan paydo bo'lib, u, tadqiq qilish ma'nosini anglatadi. Ta'lim metodi ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning aniq maqsadga erishishiga qaratilgan birgalikdagi faoliyatdir. Ta'lim metodlari - o'qitishning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish usullarini hamda o'quv materialini nazariy va amaliy yo'naltirish yo'llarini anglatadi. O'qitish metodlari ta'lim jarayonida ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyatining qanday bo'lishi, o'qitish jarayonini qanday tashkil etish va olib borish kerakligini hamda shu jarayonda ta'lim oluvchilar qanday ish-harakatlarini bajarishlari kerakligini belgilab beradi. Shuningdek, ta'lim metodi o'qituvchi va ta'lim oluvchilarning o'qish vazifalarini bajarishga qaratilgan nazariy va amaliy bilish faoliyati yo'lidir. Ta'lim metodlari tevarak-atrofdagi dunyoni bilishning umumiy qonuniyatlarini tushunishga bog'liqdir, ya'ni ular falsafiy metodologik asosga ega va ta'lim jarayonidagi qarama-qarshiliklarni, ta'lim jarayonining mohiyatini va tamoyillarini to'g'ri anglash natijasidir. Ta'lim materiali ta'lim mazmunida ifodalangan ilmiy fikr mantig'iga bog'liq. Pedagogik qarashlarda nazariya qancha kam ifodalangan bo'lsa, ta'lim metodlari bu nazariyaga shuncha kam bog'liq bo'ladi. Pedagogika fani oliy ta'lim muassasalarida ilg'or ish tajribalarini umumlashtiradi, an'anaviy ta'limning ilmiy asoslarini ko'rsatib beradi, o'qitishning zamonaviy, samarali metodlarini ijodiy ravishda izlab topishga



yordam beradi. Shu sababli ham ta'lim metodlari oldiga quyidagi asosiy talablar qo'yiladi:

1. O'quv materialini o'rganish yo'li fikr yuritishning didaktik-materialistik usullarini, milliy mafkuraga hamda milliy qadriyatlarga asoslangan axloq, xulqatvorning irodaviy sifatlarini shakllantirishga olib kelishi kerak.

2. Ta'lim metodi ilmiy dalillar bilan aniq va ravshan asoslangan bo'lishi lozim.

3. Ta'lim metodlarining tizimliliği ularning samaradorlik darajasini belgilaydi.

4. Ta'lim metodlari oldiga muqarrar sur'atda qo'yiladigan yana bir talab - ularning tushunarli bo'lishi.

5. Bolani sezgi organlari orqali bilishga o'rgatish va o'quv jarayonida ko'rsatmali qurollardan iloji boricha ko'proq foydalanish.

6. Ta'lim metodlari oldiga qo'yiladigan talablardan yana biri - bu bilimlarning asosli va puxta bo'lishi.

Ta'lim metodlari yaxshi natija beradigan bo'lishi lozim. Ta'lim beruvchining tushuntirish va ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish usuli rejalashtirilgan yoki mo'ljallangan natijani berishi kerak. Pedagogika fanida, o'qituvchilarning amaliy tajribasini o'rganish va umumlashtirish asosida ta'lim metodlarini tanlashda o'quv-tarbiya jarayoni kechayotgan shartsharoitlar va aniq holatlarga bog'liq muayyan yondashuvlar vujudga keladi. Ta'lim metodlarini tanlashda quyidagi holatlar inobatga olinishi lozim: Ta'limning umumiy maqsadlari. Fanning va o'rgani1ayotgan mavzuning mazmuni hamda o'ziga xosliklari. Biror fanni o'qitish metodikasining o'ziga xosliklari. Materialni o'rganishga ajratilgan vaqt. O'quv mashg'ulotining maqsadi, vazifalari va mazmuni. O'quvchilarning yoshi va bilish imkoniyatlari. O'quvchilarning tayyorgarlik darajasi. Ta'lim muassasasining moddiy ta'minlanganigi. O'qituvchining nazariy, amaliy va metodik tayyorgarligi, pedagogik mahoratni egallaganlik darajasi. Ta'lim metodlari ta'lim vositalari bilan birgalikda qo'llaniladi. Ta'lim vositalari - bu yangi bilimlarni o'zlashtirishi uchun o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan foydalaniladigan obyekt. Ta'lim vositalari pedagogikada katta ahamiyatga ega. Ta'limning barcha vositalari ta'lim maqsadlarini muvafaqqiyatli amalga oshiradi. Ta'lim vositalari o'zida o'quv-tarbiyaviy maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan moddiy yoki ma'naviy qadriyatlarni aks ettiradi. Odatda ular ta'lim metodlariga mos holatda foydalaniladi. Biroq agar metodlar "qanday o'qitish?" savoliga javob bersa, vositalar esa "uning yordamida nimani o'qitish?" savoliga javob beradi. An'anaviy ravishda qo'llaniladigan ta'lim vositalariga darslik, rasmlar, jadvallar, nutq, o'quv-ustaxonasi jihozlari, laboratoriyalar, o'quv jarayonini tashkil etish va boshqarish vositalari kiradi. Hozirgi kunga kelib zamonaviy axborot texnika vositalari, kompyuter va internetni ham o'quv jarayonining tashkil etishida bevosita ishtirokini ko'rishimiz mumkin.

Didaktik vositalar metodlar singari ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funksiyalarni bajaradi. Bundan tashqari o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini hosil qilish, boshqarish va nazorat qilish vazifalarini bajaradi. Didaktik vositalar audivizuallik tafsilotida motivatsion, axborot, ta'lim jarayonini boshqarish,



optimallashtirish funksiyalarini bajaradi. Ta'lim vositasi fanni o'qitish bilan bog'liq holda tanlanadi. O'qituvchi o'zining ixtiyori bo'yicha ko'rgazmali material, o'quv qo'llanmadan foydalanishi mumkin. Ta'lim vositasini qo'llanilishining yana bir jihati, albatta, ta'lim jarayonining tarkibiy qismi sifatida aks ettirishidir. Ta'lim vositasini tanlab olish ta'lim metodini tanlash bilan bog'liq. Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasi o'sishiga olib keladi.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Interfaol ta'lim metodlari hozirda eng ko'p tarqalgan va barcha turdagi ta'lim muassasalarida keng qo'llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, interfaol ta'lim metodlarining turlari ko'p bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonining deyarli hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslari hozirda mavjud. Amaliyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini ajratib tegishlicha qo'llash mumkin. Bu holat hozirda interfaol ta'lim metodlarini ma'lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to'g'ri tanlash muammosini keltirib chiqargan. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, obrazli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi. Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o'zaro muloqotda, o'zaro bahs-munozarada fikrlash asnosida, hamjihatlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o'quvchi-talabani mustaqil fikrlashga o'rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi. O'qitishning interfaol usullarini tanlashda ta'lim maqsadi, ta'lim oluvchilarning soni va imkoniyatlari, o'quv muassasasining o'quv-moddiy sharoiti, ta'limning davomiyligi, o'qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar e'tiborga olinadi.

Interfaol metodlar deganda - ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi: ta'lim samarasi yuqoriroq bo'lgan o'qish-o'rganish; ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi; ilgari orttirilgan bilimlarning ham e'tiborga olinishi; ta'lim jarayoni ta'lim oluvchining maqsad va extiyojlariga muvofiqlashtirilishi; ta'lim oluvchining



tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi; amalda bajarish orqali o'rganilishi; ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi. Shunday qilib, fanlarni o'qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o'ziga xos xususiyatga ega. Ta'lim amaliyotida foydalanilayotgan har bir interfaol metodni sinchiklab o'rganish va amalda qo'llash o'quvchi-talabalarning fikrlashini kengaytiradi hamda muammoning to'g'ri yechimini topishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchi-talabalarning ijodkorligini va faolligini oshiradi. Turli xil nazariy va amaliy muammolar interfaol metodlar orqali tahlil etilganda o'quvchi-talabalarning bilim, ko'nikma, malakalari kengayishi va chuqurlashishiga erishiladi. Yuqorida aytilganlardan interfaol ta'lim metodlarini tegishli tahlil qilish va shu asosda ularni tasniflash zarurati ma'lum bo'ladi. Quyida ushbu masala yuzasidan umumiy mulohazalarni keltiramiz. Bu metodlarni tasniflashda ularni interfaol metodlar, interfaol ta'lim strategiyalari, interfaol grafik organayzerlarga ajratish mumkin. Eng jiddiy didaktik muammolardan biri ta'lim metodlarini tanlash nimalarga bog'liq, degan masaladir. Didaktikaga oid adabiyotlarda ta'lim metodlarini to'g'ri tanlash va ularni qo'llash samaradorligining turli omillar bilan bog'liqligi quyidagicha qayd qilinadi: birinchidan, o'quv mashg'ulotlarining didaktik maqsadlari va vazifalariga bog'liq; ikkinchidan, bayon qilinadigan materialning harakteriga bog'liq; uchinchidan, ta'lim oluvchilarning bilimi va rivojlanish darajasiga bog'liq; to'rtinchidan, o'quv jarayonida o'rganilayotgan fan asoslarining muayyan (hozirgi) davrdagi metodlariga bog'liq; beshinchidan, o'quv jarayonining moddiy-texnik ta'minoti bilan bog'liq; oltinchidan, o'qituvchining pedagogik mahorati, uning tayyorgarligi va o'quv jarayonini tashkil etish darajasi hamda o'qituvchining hozirgi zamon metodlari bo'yicha bilimlariga bog'liq. Bunda har bir shakl o'z oldiga qo'ygan vazifalarni bajaradi, lekin shakl va metodlar to'plami yagona didaktik majmuani hosil qiladi. Bu didaktik majmuaning amalga oshirilishi esa, o'quv jarayonining psixologik-pedagogik qonuniyatlari bilan belgilanadi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ta'lim olish jarayonida ta'lim metodlari, vositalari va ularni to'g'ri va o'rinli qo'llash muhim ahamiyatga ega. Va ular ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Demak, bugungi kunda har bir soha va tizim faoliyatini innovatsion g'oyalar va texnologiyalar asosida olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Harbiy ta'lim muassasasi hayotiga pedagogik innovatsiyalarni keng ko'lamda olib kirish uchun unda yangilik muhitini yaratish, muayyan axloqiy psixologik holatni shakllantirish, tashkiliy, metodik, psixologik xarakterdagi chora-tadbirlarni qo'llash talab etiladi. Shu maqsadda pedagoglarning kreativ funksiyalarini rivojlantirish, ularni pedagogik innovatsiyalar bilan izchil qurollantirib borish, innovatsion usullarni tahlil va tatbiq qilishga o'rgatish vazifasini qo'yish lozim.

Pedagogika fanida ta'lim tizimidagi yangilik masalalari muttasil mutaxassislar tomonidan o'rganilib kelinmoqda. Biroq, ijtimoiy-pedagogik yangiliklar mintaqaviy ta'lim tizimini rivojlantirish omili sifatida, bir tomondan, nisbatan yaqinda tez rivojlanayotgan ijtimoiy pedagogika fan va amaliy faoliyat sohasi sifatida nisbatan yaqinda paydo bo'lganligi sababli, boshqa tomondan, ta'limni markazlashtirish va



mintaqalashtirishning ijtimoiy tendensiyasining nisbiy yangiligi bilan bog'liq. Bundan tashqari, xususiy, to'g'ri pedagogik (masalan, uslubiy) yangiliklarning samaradorligi, agar ular ijtimoiy-pedagogik rejada qo'llab-quvvatlanmasa ancha past bo'ladi. Shunday qilib, xususiy innovatsiyalar va ijtimoiy-pedagogik yangiliklarni qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy-pedagogik kontekstni yaratish ham, ma'lum hajm, miqyosida va darajada umuman mintaqaviy ta'lim tizimini rivojlanishini sezilarli darajada kuchaytirishi mumkin.

Harbiy didaktika harbiy xizmatchilar ta'limini murakkab ijtimoiy- pedagogik jarayon sifatida o'rganadi va bu jarayonning quyidagi asosiy funksiyalarini belgilaydi:

- ta'limiy (harbiy xizmatchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish); tarbiyaviy (harbiy xizmatchilarda o'z Vatanining qurolli himoyachisi uchun zarur shaxsiy sifatlarni tarbiyalash);

- rivojlantiruvchi (harbiy xizmatchi shaxsini komil inson sifatida rivojlantirish, yuzaga kelgan turli vazifalarni hal qilishga ijodiy yondashish malakalarini rivojlantirish) va ruhiy tayyorlash (harbiy xizmatchilarda xizmat vazifalarini bajarishga va jangovar vaziyatda muvaffaqiyatli harakat qilishga ruhiy tayyorlikni shakllantirish).

Pedagogika fani va ta'lim-tarbiya amaliyotida turli yondashuvlar qo'llaniladi. Yillar davomida qo'llanib kelinayotgan an'anaviy yondashuv bilan bir qatorda hozirgi kunda ta'limga zamonaviy yondashuvga alohida e'tibor berilmoqda. Ta'limga tizimli, texnologik, tadqiqiy, funksional, kompleks, faoliyatli yondashuvlar zamonaviy yondashuvga misol bo'la oladi.

An'anaviy yondashuv. Uning asosiy xususiyati, pedagog ma'lum axborotni gapirib beradi, tushuntiradi, ta'lim oluvchi harbiy xizmatchilar esa bu bilimni xotirasida saqlaydi. "Bilim" tushunchasi xotirada saqlanadigan axborot ma'nosida tushuniladi. Ta'lim oluvchida bilim bor-yo'qligi imtihonda shu axborotga doir berilgan savolga yoddan bergan javobiga qarab aniqlanadi.

Tizimli yondashuv. Tizimli yondashuv ilmiy bilish metodologiyasi va pedagogik amaliyotning bir yo'nalishi sifatida universal tavsifga ega bo'lib, pedagogikada keng qo'llaniladi. Ta'lim-tarbiyaga ham pedagogik tizim sifatida qarash lozim. Texnologik yondashuv. Sanoat ishlab chiqarishi sohasida yuzlab texnologik loyihalar (jarayonlar) yaratilgan. Ular, agar texnik hujjat talablariga amal qilinsa, ishni kim va qayerda bajarganidan qat'iy nazar, mahsulot sifati va natijasi kafolatlanadi.

Ta'lim ishiga texnologik yondashuv esa:

- o'qish-o'qitish jarayonini o'zaro uzviy bog'liq bosqichlar, fazalar, amallarga ajratish, bo'lishni;

- ta'limdan mo'ljallangan natijaga erishish uchun bajariladigan harakatlarni muvofiqlashtirishni, ketma-ket, bosqichma-bosqich amalga oshirishni;

- loyihalashtirilgan ishlar, amallarning barchasini birdek bajarishni nazarda tutadi.



Tadqiqiy-ijodiy yondashuv. Bunday yondashuv ta'limning maqsadidan kelib chiqib ta'lim oluvchida biror muammoni yechish qobiliyatini o'stirish, yangi bilim (tajriba)ni mustaqil o'zlashtirish, harakatning yangi usullarini topish, shaxsan tashabbus ko'rsatishni ko'zda tutadi.

XULOSA

Harbiy xizmatchilarga ta'lim berish jarayonida ular harbiy xizmat faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishlari uchun tegishli bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar. Shu bilan bir vaqtda ularning tafakkuri rivojlanadi, irodasi va xarakteri chiniqadi, ma'naviy-axloqiy va jangovar sifatlari, hissiy-irodaviy turg'unligi, jangovar xolatlarda aniq va ishonchli harakat qilish uchun ruhiy tayyorgarligi shakllanadi. Bunday vazifalarni amalga oshirish uchun harbiy ta'lim jarayonini tashkil etishda turlicha yondashuvlar mavjud. Ularni asosiylarini ko'rib chiqish lozim. Harbiy ta'limga davlat va jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablarda harbiy ta'lim sohalari bo'yicha o'zaro muvofiqlik va mutanosiblik to'la ta'minlanadi. Shu jihatdan harbiy ta'lim standartini belgilashda ta'lim jarayonining tarkibi, xuddi shu tarkibiy qismlarning mazmunini modernizatsiyalash, zamonaviy pedagogik texnologiyani qo'llash imkoni hisobga olingan. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, mustaqil o'qishning yangi texnologiyalari, eng avvalo tinglovchilar faolligini oshirishga qaratilgandir. Zero, shaxsiy intilish, zo'riqish bilan topilgan bilish jarayonida juda katta ahamiyatga ega bo'ladi. O'qituvchilarda ijodkorlikni shakllantirishning muhim pedagogik sharti uni mustaqil bilim olish va ijodiy fikrlashga yonaltirishdan iborat. Shu bilan bir qatorda, o'qituvchilar orasida ijodiy muhit, muayyan ma'naviy-ruhiy holat, tashkiliy, metodik, psixologik chora-tadbirlar qo'llashga ham alohida e'tibor qaratish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoev Sh.M. Qurolli Kuchlarimiz – mamlakatimiz barqarorligi va taraqqiyotining mustahkam kafolatidir / O'zbekiston Respublikasi xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi yig'ilishdagi nutqi // Vatanparvar, 2018 yil, 13 yanvar.
2. Kirlanov T.G. Oliy ta'limga nisbatan faol ta'lim usullari tasnifi /Yosh olim. No 5 (15), 2015. P.337-339
3. Satib-Aldiev A.A. Ta'limning faol shakl va metodlari. // Metodik tavsiyalar: – Toshkent OUQBYu, 2007. – 45 b.
4. www.ziyonet.uz
5. www.lex.uz
6. Ibragimova G.N. Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish. I Monografiya. - T.: «Fan va texnologiyalar», 2016. -77-b
7. Panfilova A.P. Innovatsion pedagogik texnologiyalar: Faol o'rganish: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik / A.P. Panfilov. - M., Akademiya, 2009 y.